



FOLKLOR VA TARJIMA MUAMMOLARI

Usmonova Mohinur Hasan qizi

mohinur630@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya
fakulteti magistratura bosqichi talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18015908>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 18-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 22-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

Folklor, meros, milliy mafkura, din,
tarjima, muammo, olimlar,
qiyinchiliklar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining na'munalari bo'lgan folklor asarlarining tarjima qilishdagi muammolari haqida qisqacha to'xtalib o'tiladi. Folklor – bu har bir millatning ma'naviy merosidir, shu xalqning dunyoqarashi, tarixi, orzu-umidlari va qadriyatlarining og'zaki ifodasidir. Xalq og'zaki ijodi, xalq ertaklari, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, laparlari yallalar va afsonalar o'ziga xos milliylikni ko'rsatuvchisidir. Biroq rivojlanib kelayotgan dunyoda turli madaniyatlar o'rtasida muloqot vazifasini o'taydigan tarjima jarayoni folklor matnlarini boshqa tillarga o'girishda nihoyatda murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada folklor asarlarini tarjima qilishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Folklor bu asarlar davomda shakillangan va rivojlangan, o'zgarib va takomillashib kelayotgan xalqimizning qimmatli sandig'idir. Bu asarlar butun bir dunyoning qadrli bir asari bo'lishi uchun tarjima qilishga to'g'ri keladi bu esa turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tarjima qilishda esa duch kelishimiz mumkin bo'lgan muammolarini tushunishimiz uchun avvalo folklorning o'ziga xos jihatlarini bilishimiz kerak bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi ko'pincha tinglovchilarga og'zaki tarzda yetkaziladi va o'zgarishi ham mumkin. Chunki og'zaki ijod erkin holda kuylanganni uchun unga aytuvchilarning ijodiy energiyasi, qarashlari va madaniyati singdiriladi. Bu esa og'zaki ijodni yozib olishda turli variantlarinig paydo bo'lishiga olib keladi va tarjimaga ham ta'sir ko'rsatmaydi deb ayta olmaymiz. Shuningdek mafkuraviy qarashlar va milliy qadriyatlar ham folklor asarlariga ta'sir qiladi. Butun bir elat yoki xalqning boyligi bo'lgan folklor asarlar davomda shakillangani uchun yashash hududi, tarixiy qarashlari va tajribasi, marosimlariyu an'analari va turli diniy tasavvurlarini ham singdirishga harakat qilishgan. Bundan tashqari folklor asarlarida poetik til tuzilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Turli xil o'xshatishlar, qofiya, o'lchov, takroriylik, onomatopeya (tovushni taqlid qilish) kabilar ham folklor asarlarida o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Qolaversa, xalq og'zaki ijodini xalq kuylagani uchun ularda qadim zamonlarda ota bobolarimiz ishlatib kelgan so'zlar ya'ni arxaik so'zlar va sheva sizlarini ham uchtatishimiz

mumkin. Folklor asarlari ko'p hollarda adabiy tilga qaraganda eskirgan yoki biron bir geografik hududda ishlatiladigan so'zlardan, foydalanadi. Bu esa tarjimada qiyinchiliklar olib keladi. Folklor asarlarining boshqa jihati esa ramz va timsollar muammosi tarjimada bazi qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ma'lum ramz va timsollar, obraz va tushunchalar (masalan, ro'mol, Ajdarho, to'g, Semurg, turli qushlar, olma, soch, turli ranglar ham) bazi xalqlardagina madaniy va diniy turli ma'no va mohiyatni bildiradi. Tarjima qilinganda esa boshqa xalqlarda ma'no anglatmasligi mumkin va u xalqqa tushunarsiz va g'aliz tuyilishiga olib keladi. Misol uchun Turkiylarda bōrining chuqur mohiyatini Yevropa xalqlaridan topib bera olmaysiz.

Materiallar va metodlar

Folklor asarlarining tarjimasi haqida gap ketar ekan o'zbek va jahon tarjimashunosligida ish olib borgan olimlarni e'tibordan chetda qoldira olmaymiz albatta. Chunki tarjimonlar orqali inson turli millat va elatlarning ma'naviy boyligidan foydalana olamiz va bu asarlar orqali xalq taniymiz.

Jahon tarjimashunosligida katta yutuqlarga erishgan olimlar va tarjimashunoslar bor masalan N.V.Kidaysh-Pokrovskaya, V.M.Gatsak, Sh.A.Alekperova, A.S.Mirbadaleva, N.M.Tereshenko, S.Dollerup, L.A.Pisareva, Z.S.Kazagacheva, O.N.Zimneva, N.M.Axpasheva¹ kabi bir qator tadqiqotchi olimlar folklor asarlarini tarjimasiga oid ilmiy izlanishlarini misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin. Hozirga qadar o'zbek tarjimashunosligida G'.Salomov, N.Komilov, G.G'afurova, K.Jo'rayev, I.G'afurov, I.Mirzayev, Q.Musayev, T.Jo'rayev, M.Xolbekov, O.Mo'minov, M.Umarxo'jayev, G'.Hoshimov, M.Baqoyeva, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova, N.Qambarov, E.Ochilov, G'.Rahimov, D.Jumanova, R.Shirinova, M.Javbo'riyev, Sh.Isakova, N.Panjiyeva, N.O'rmonova, A.Ko'chiboyev² va boshqa olimlarning tarjima nazariyasi hamda amaliyoti, u bilan bog'liq muammolar yechimi, tarjima tanqidi sohasida erishgan yutuqlari bu sohadagi keyingi tadqiqotlar uchun dasturulamal bo'lganligini e'tirof bilan alohida qayd etish o'rinli. Ayni paytda o'zbek tarjimashunosligida erishilgan yutuqlar o'zbek folklori tarjimashunosligining shakllanishi va nazariy jihatdan taraqqiy etishi uchun ilmiy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda hozirgacha R.Fayzullayeva, Sh.Ro'ziyev, Y.Nurmurodov, B.Shamsiyeva, B.Ro'zimboyev, Z.Jumaniyozov, H.Yusupova, M.Jo'rayeva, U.Yo'ldoshev, R.Qosimova³ kabi olimlarni keltirishimiz mumkin.

Muhokama va natijalar

Yuqorida folklorga xos xususiyatlarning bazilarini ko'rib chiqdik endi esa bu asarlarni tarjima qilishda tarjimon qanday qiyinchiliklardan o'tishi haqida ham anglashimiz kerak. Lingvistik muammolar Qofiya va ritm: "Chambil cho'p, challa-cho'p" kabi bolalar she'rlari yoki dostonlardagi vaznni boshqa tilga o'girish deyarli imkonsiz. Tarjimon bunda ko'pincha matnda anglashilinayotgan mazmunni odamlarga yetkazishga e'tibor qaratadi, ammo asarning musiqaviyligi yo'qoladi. Folklor asarlarini tarjima qilishimizda taqlid so'zlar ham ahamiyat kasb etadi. "Vov-vov" (itov), "mauv" (mushukov) kabi tovushlarni ifodalovchi so'zlar har xil tillarda boshqacha bo'ladi. Rus tilida mushuk "myau" deb, ingliz tilida "meow" deb ovoz chiqaradi deyilgan.

Qolaversa grammatik tuzilmalar ham tarjimada muhim. Ba'zi tillarda mavjud bo'lgan grammatik kategoriyalar boshqa tillarda bo'lmasligi mumkin, bu ham tarjimada anchayin qiyinchiliklar olib keladi. Realialar ma'lum bir xalqqa xos tushunchalar, predmet yoki hodisalar ham tarjimada to'siqlarni keltirib chiqaradi. Masalan, o'zbek folkloridagi "qumoq", "choyxona", "navkar", "somsa" kabi so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish mumkin emas. Chunki bu so'zlar

boshqa xalqlarda ma'no anglatmaydi. Ingliz tilida "somsa"ni "Uzbek stuffed pastry" deb izohlab tarjima qilishga to'g'ri keladi, ammo bu uning mahalliy lazzatini va madaniy kontekstini to'liq yetkazmaydi. Bundan tashqari maqol va matallar iboralarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganimizda boshqa madaniyat vakili uchun tushunarsiz yoki ma'nosiz bo'lib qolishi mumkin. Bu yerda ma'noni, obrazning mazmunini yetkazish muhim.

Ranglarning ramziy ma'nolari ham tarjimada katta ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir rang turli xalqlarda turlicha ma'no kasb etadi. Misol uchun o'zbek folklorida "oq" rangi poklik, tinchlik, baxt ramzi bo'lsa, G'arb xalqlarining madaniyatida "white" ba'zan betaraflikni ifodalaydi bu esa asar ma'nosining o'quvchining tushunchasida o'zgarib ketishiga olib keladi. Boshqa ranglar ham masalan "Qizil" rangi go'zallik, quvvat ramzi anglatasa, boshqa kontekstlarda xavotir yoki inqilobni anglatadi bu ham ma'noni o'zgartirmaydi deya olmaymiz. Siz go'zallikni tushuntirmoqchi bo'lsangiz-u, o'quvchi inqilobni anglasa. Yumor va satiralar tarjimada bir qancha muomalarni keltiradi. Askiya va ertaklaridagi kinoya yoki hazillar ma'lum bir xalqlar hayotiga ma'no bersa, boshqa xalqlar madaniyatida boshqa ma'no beradi yoki ma'no anglatmaydi. Shunday xalqlarda esa hazil o'z ta'sirini yo'qotadi. Diniy va mifologik tasavvurlar xalqlarning mifologik qahramonlari (masalan, dev, alvasti, jin) va ularning xususiyatlari boshqa madaniyatda tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tarjimon turli usullardan foydalanishi mumkin. Masalan moslashtirish bu eng erkin tarjima usuli bo'lib, madaniy jihatdan farqlarni bartaraf etishga qaratilgan. Bunda ma'lum bir madaniyatdagi tushuncha boshqa madaniyatda mavjud o'xshash tushuncha bilan almashtiriladi. Masalan, "choyxona" ni G'arb o'quvchisi uchun "community center" yoki "local pub" deb tarjima qilish. Bundan tashqari izohli tarjima usuli ham bo'lib matn ichiga yoki pastki izoh (footnote) sifatida noaniq tushunchalarni tushuntirish. Bu usul ilmiy tarjimalar uchun juda yaxshi, ammo badiiy matnning o'qiluvchanligini buzishi mumkin. Folklor asarlarini tarjima qilishda tarjimondan kreativ yondashuv ham talab etiladi. Ba'zan tarjimon folklor asarining mohiyatini, obrazlari va ruhini saqlab qolgan holda, uni yangi til va madaniyat muhitida qayta yaratishga majbur bo'ladi. Bu badiiy tarjimaning eng yuqori darajasi hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, folklor asarlarini tarjima qilish – bu nafaqat so'zlarni boshqa tilga o'girish, balki butun bir xalqning madaniyatni aks ettirish va uni yangi madaniy kontekstda qayta shifrlash jarayonidir. Bu yo'lda tarjimon ko'pincha "so'zma-so'z" va "erkin" tarjima orasidagi nozik chegarada muvozanat topishi kerak. Ba'zi bir tarjimalar asarning mahalliy ruhini yo'q qilsa, haddan tashqari erkin holda tarjima qilish esa uning o'ziga xosligini yo'qotadi. Shunga qaramay, aynan shu qiyin mehnat tufayli butun dunyo kitobxonlari o'zbek millatiga xos tuyg'ular va madaniyatni qahramonlarining jasoratini, milliy muhabbatini dostonlardan, ertak, lapar, yalla, askiya kabilardan topishadi. Biz esa qardoshlari xalqlarimizning sehrili olamiga qadam tashlay olamiz. Shu ma'noda, folklor tarjimoni nafaqat til vositachi, balki madaniyatlar elchisi, xalqlar o'rtasidagi tushunish va hurmat ko'prigining me'mori hisoblanadi. Tarjima muammolari, garchi katta to'siq bo'lsa-da, ularni yengishga urinishlar insoniyatning umumiy madaniy boyligini saqlash va boyitish yo'lidagi qadrlil harakatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Кидайш-Покровская Н.В. Перевод тюркоязычных памятников в Академической серии, Фольклор. Издание эпоса. – Москва: Наука, 1977. -332 с.
- 2.Саломов Ғ. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Т.: ЎзР ФА нашриёти, 1961. – 159 б.
- 3.Саломов Ғ. Тил ва таржима (бадий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Т.: Фан, 1966.
- 4.Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: дисс. . канд. филол. наук. – Т.: АНРУз, 1972. – 225 с.
- 5.XOLMUMINOV I. “Alpomish” dostonini ingliz tiliga tarjima qilish muammolari”. - Toshkent: 2023.



INNOVATIVE
ACADEMY